

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

RAXMATULLAYEVA NIGORA TURGUNOVNA

**MAHALLIY XOM ASHYO ASOSIDAGI KO‘MIRLI ADSORBENTLARNI
MO‘RIDAN CHIQUVCHI TUTUNLARNI YUTILISHIDA QO‘LLASHNING
KOLLOID-KIMYOVIY JIHATLARI**

02.00.11-Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of doctor of filosofy (PhD)

Raxmatullayeva Nigora Turgunovna

Mahalliy xom ashyo asosidagi ko'mirli adsorbentlarni mo'ridan chiquvchi tutunlarni yutilishida qo'llashning kolloid-kimyoviy jihatlari.....3

Рахматуллаева Нигора Тургуновна

Коллоидно-химические аспекты применение угольных адсорбентов на основе местного сырья для поглощение печных дымов21

Rakhmatullaeva Nigora

Colloidal-chemical aspects of the use of coal adsorbents based on local raw materials for the absorption of furnace fumes.....39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

RAXMATULLAYEVA NIGORA TURGUNOVNA

**MAHALLIY XOM ASHYO ASOSIDAGI KO'MIRLI ADSORBENTLARNI
MO'RIDAN CHIQUVCHI TUTUNLARNI YUTILISHIDA QO'LLASHNING
KOLLOID-KIMYOVIY JIHLARI**

02.00.11-Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/K580 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.namnti.uz) va Axborot ta'lim portalida «ZiyoNet» da (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Jumayeva Dilnoza Jo'rayevna texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Salixanova Dilnoza Saidakbarovna texnika fanlari doktori, professor Baxronov Hayot Nurovich kimyo fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «12» noyabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (+99869) 228-76-75; faks: (+99869) 228-76-71, e-mail: niei_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 321 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (+99869) 228-76-75; faks: (+99869) 228-76-71).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «30» oktabr kuni tarqatildi.
(2024 yil «30» oktabr № 11 raqamli reestr bayonnomasi)




O.K. Ergashev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.


D. Sh. Sherqo'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., prof.


A.D. Eshmetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi o'rinbosari, t.f.d., prof.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda sanoatning qator tarmoqlari xususan, kimyo, metallurgiya, neft va gaz sanoatlarida ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan, tarkibida zaharli va halokatli qo‘shimchalar saqlagan, shuningdek atmosfera va atrof-muhitni zararllovchi gaz chiqindi tashlanmalarining asosiy manbaasi hisoblanadi. Atrof muhit muhofazasi masalalari hamda sanoatning turli tarmoqlarida yuzaga kelgan muammolarning yechimi uchun xizmat qiladigan adsorbentlardan adsorbsiya jarayonlarida foydalanilganda turli tabiatga ega chiqindi gazlarni tozalashda ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida keng qo‘llanilib kelinadi. Xususan, sanoatning ko‘pgina tarmoqlarida faollantirilgan adsorbentlarning turli assortimentlarini ishlab chiqarishda asosan, tarkibidagi uglerodning dastlabki miqdori 76,0–86,0% dan yuqori bo‘lgan uglerodli materiallardan, o‘simliklarning poya va shoxlaridan, chiqindi sifatida utilizatsiya qilingan mevalarning danaklaridan, jumladan o‘rik, shaftoli, yong‘oq kabi, shuningdek gil minerallaridan hamda ularga yondosh boshqa xom ashyo chiqindilari asosida olinadigan adsorbentlardan foydalanish uchun ularning fizik-kimyoviy xossalarini, adsorbsion qobiliyatini yaxshilash asosida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan bo‘lib, samarali adsorbentlarni sanoatning turli tarmoqlarida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda daraxt yog‘ochi chiqindi poyalari va ular asosida faollantirib olingan sorbsion materiallar olish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada atrof-muhit muhofazasi masalalarining yechimi uchun xizmat qiladigan, sanoat va korxonalaridan chiqayotgan zararli gazlarning sorbsiyasida qo‘llaniladigan sorbentlarni qo‘llashning ilmiy asoslarining tahlil qilish; korxonalaridan chiqayotgan chiqindi gazlarni tozalash maqsadida ularni turli usullar yordamida faollantirib olingan sorbentlardan foydalanish; sorbentlarning sorbsion mexanizmlarini aniqlashda sorbatlarni adsorbsiya mexanizmi bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda yechimlarni ilmiy asoslash: jumladan, turli usullarda faollashtirib olingan adsorbentlarda gazlarning sorbsiya mexanizmi; faollashtirilgan sorbsion materiallarning fizik-kimyoviy xarakteristikalari tadqiqi va tahlili; yuqori sorbsion qobiliyatga ega sorbsion materiallarda qutbli va qutbsiz adsorbat molekulalarining adsorbsiya mexanizmi; adsorbentlarda o‘rganilgan adsorbsiya izotermalarini mikrog‘ovaklar hajmiy to‘yinish nazariyasi tenglamalari yordamida tavsiflashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz miqiyosida chiqindi xomashyolaridan import o‘rnini bosuvchi sorbsion xususiyatli uglerodli adsorbentlarni olish va ular turli gaz chiqindilarining sorbsiyasini o‘rganish, ekologik va ijtimoiy muammolar yechimini izlash borasida ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasining 7 - bandida «Yashil iqtisodiyot texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko‘rilsin»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada esa, jumladan mahalliy lashtirilayotgan daraxtning chiqindi xomashyo mahsulotidan foydalanib sorbsion qobiliyati yuqori bo‘lgan adsorbentlar olish va atrof muhitga zarar yetkazayotgan uglerod dioksidi va

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi Farmoni

vodorod sulfidi gazlarining sorbsiyasida qo'llash ekologik muammolarni kolloid kimyoviy yechimida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta tamoyili bo'yicha Harakatlar strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni, 2017 yil 23-avgustidagi PQ-3236-son «2017-2021- yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi Qarori, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi, shu bilan birga tegishli faoliyat uchun taaluqli keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab olingan barcha vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'lqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «VII. Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi zamonaviy hamda klassik ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, adsorbentlar olish usullari, adsorbsiya mexanizmi hamda termodinamik xarakteristikalar bo'yicha tadqiqotlar, seolitlarda sorbatlar sorbsiyasi jarayonlari, ularning qo'llanilish sohalari tanlash kabi ilmiy tadqiqot ishlanmalari yetarli darajada keng yoritilgan. Hozirga qadar turli xomashyolar asosida faollash usullarini tanlab adsorbentlar olish hamda adsorbsiya jarayonlarining tadqiqoti, jumladan sorbsiya mexanizmi va tegishli sohalarda ularni qo'llash uchun ishlab chiqarish korxonalariga tavsiyalar berish, seolitlar sintezi, ularning adsorbsiyasi, to'liq termodinamik mexanizmlarining tadqiqoti, katalizatorlar olish va ularni qo'llanilishi bo'yicha dunyo olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Bugungi kungacha dunyo olimlari tomonidan kimyo sanoati, tibbiyot va ekologiya muammolarini yechimi uchun xizmat qiladigan yuqori sorbsion xususiyatli adsorbentlarni daraxt yog'ochi chiqindilari asosida turli faollashtirish usullari orqali olish bo'yicha ilmiy izlanishlar ma'lum va unga bo'lgan qiziqishlar davom etmoqda. Jumladan, daraxt yog'ochlaridan sorbentlar olish ustida izlanishlar olib borayotgan xorijiy soha mutaxassislaridan B.N. Kuznesov, T.N. Konogonov, M.I. Chudakov, L.P. Levonova, G.N. Dalimovalar hamda yog'och asosida olingan sorbsion materiallarda gazlarning adsorbsiyasi ustida izlanishlar olib borgan yetuk olimlardan K.V. Shele, A.F. Fontan, T.Ye. Lovis, M.M. Dubinin, A.V. Kiselev, N.D. Zelinskiy, N.A. Shilova, W.W. Wang, Yu.I. Tarasevich va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

O'zbekistonda kolloid kimyoning muhim ilmiy masalalari va ularning yechimlari ustida izlanishlar olib borgan ilmiy maktabning shakllanishiga asos solgan yetuk olim, akademik K.S. Axmedov va ular boshchiligidagi ilmiy maktab vakillaridan E.A. Aripov, F.L. Glekel, S.S. Xamrayev, A.A. Agzamxodjaye, S.N. Aminov, G.U. Raxmatkariyev, S.Z. Muminov, G.R. Narmetova, U.K. Axmedov, O.K. Ergashev, I.D. Eshmetov, D.S. Salixanova, D.J. Jumayeva, A.B. Abdikamalova, H.N. Baxronov va boshqa qator davomchi olimlar mazkur sohaning rivojlanishi uchun salmoqli hissa qo'shib kelmoqdalar.

Shuni alohida qayd etish lozimki, mazkur maktab vakillari bo'lgan soha olimlari tomonidan bugungi kungacha Pavlovniya daraxti yog'ochi chiqindilari asosida

faollashtirishning an'anaviy hamda noan'anaviy usullarini tanlab adsorbent olish, sorbsion jarayonlarning termodinamik xarakteristikalarini tavsiflash, shuningdek gazlarni tarkibidagi zararli va zaharli moddalarni sorbsiya jarayonlari mexanizmlarining tadqiqoti bo'yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-402104431 «Mahalliy daraxt poya chiqindilari asosida oziq-ovqat sanoatida qo'llash uchun import o'rinbosar adsorbent olish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi daraxt yog'ochidan faollashtirib olingan Pp-PAU-A, PPAU-A hamda Mt-PAU-A sorbentida adsorbsion-kalorimetrik usulda CO₂ ning adsorbsiya mexanizmini aniqlash hamda ularni atrof muhit muhofazasining yechimi uchun tavsiya etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Daraxt yog'ochi po'stlog'i va poyalari xomashyosi hamda ular asosida olingan adsorbentlarni kimyoviy tarkibini tadqiq etish;

Daraxt xomashyo chiqindilari asosida piroliz hamda pargazli faollashtirishni amalga oshirish jarayonida atrofga chiqadigan zararli va zaharli gazlarni xromatogramma usuli yordamida tadqiq etish;

Faollashtirib olingan adsorbentlar (Pp-PAU-A, PPAU-A, Mt-PAU-A) ni fizik-kimyoviy tahlillarini, jumladan, rentgenfazaviy, IQ-spektr, xromatografiya kabi tadqiqot tahlillarini amalga oshirish;

Suv bug'i yordamida an'anaviy faollashtirilgan uglerod asosli daraxti po'stlog'idan olingan Pp-PAU-A va PPAU-A adsorbentlarida qutbsiz molekula CO₂ adsorbsiyasining termodinamik xarakteristikalarini aniqlash;

An'anaviy faollashtirilgan Pavloniya daraxti po'stlog'idan olingan Pp-PAU-A va PPAU-A adsorbentlarida CO₂ adsorbsiyasining izotermasi va ular asosidagi MHTN tenglamalari yordamida tavsiflash;

Noan'anaviy usulda faollashtirib olingan Mt-PAU-A adsorbentida CO₂ molekulasi adsorbsiya mexanizmini aniqlash;

Faollashtirib olingan Pp-PAU-A, PPAU-A hamda Mt-PAU-A, shuningdek import BAU-A adsorbentlarida CO₂ molekulasini adsorbsiyasi termodinamik xarakteristikalarining qiyosiy tahlillarini olib borish;

Tabiiy gaz tarkibidagi toksik molekulalarning faollashtirib olingan adsorbentlar g'ovaklarida sorbsiyalanishining eksperimental tadqiqotini amalga oshirish va atrof muhit muhofazasi uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida qutbsiz CO₂ molekulasini, daraxt po'stlog'i asosida olingan Pp-PAU-A, shuningdek daraxt yog'ochi asosida an'anaviy usulda faollashtirib olingan PPAU-A hamda noan'anaviy usulda olingan Mt-PAU-A sorbenti, Tian-Kalve DAK-1-1 markali mikrokalorimetr qurilmasi shuningdek, solishtirish maqsadida import-analog (BAU-A) adsorbenti tanlangan.

Tadqiqotning predmetini pavloniya daraxti yog'ochi asosida turli usullarda faollashtirib olingan uglerod asosli, yuqori g'ovakli adsorbentlarni olish hamda ularni kolloid-kimyoviy xossalari, termodinamik xususiyatlarini tadqiqoti orqali Pp-PAU-A,

PPAU-A va Mt-PAU-A sorbenti, shuningdek import analog BAU-A adsorbentlarning sorbsiya qonuniyatlari hamda adsorbent-adsorbat o‘zaro ta’sirlashish mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti ishini bajarishda sorbentlarning fizikaviy hamda kolloid-kimyoviy xarakteristikalari, jumladan xromatogramma va rentgenfazali tahlil usullari, yuqori vakuumli mikrokalorimetrli Tian-Kalve DAK-1-1 qurilmasi tahlili qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Pp-PAU-A, PPAU-A hamda Mt-PAU-A adsorbentlarida kvadrupol CO₂ molekulasida adsorbsiyasining izotermasi va asosiy termodinamik tavsiflari (ΔH , ΔF , ΔS) asosida faol markazlarning miqdori va ulardagi adsorbsiyalanish qonuniyatlari aniqlangan;

- Pp-PAU-A adsorbentining dastlabki faol markazida kvadrupol CO₂ adsorbsiyasida 4CO₂:C_I tetramer kompleksigacha 0,1 mmol/gga, keyingi faol markazi 0,125 mmol/g adsorbsiya miqdoriga karrali ravishda qonuniyatli sorbsiyalanishi va 4CO₂:C_{II} kompleks hosil bo‘lishi isbotlangan;

- PPAU-A adsorbenti faol markazida CO₂ adsorbsiyasida mono- va trimer (nCO₂:C) komplekslar hosil qilishida entalpiyaning ortishi CO₂ ning Van-der-Vaals o‘zaro ta’sir kuchi orqali induksion effekt natijasida qo‘shimcha issiqlik ajralishi orqali asoslanilgan;

- Mt-PAU-A adsorbentining I-koordinatsion sferasida pentamer 5CO₂:C komplekslarini, shuningdek umumiy holda C:5CO₂:5CO₂ kompleksini hosil qilib, II-koordinatsion sferada adsorbat/adsorbat o‘zaro ta’sirlashuv asoslanilgan;

- Mt-PAU-A adsorbentida CO₂ adsorbsiya differensial entalpiyasi Pp-PAU-A va PPAU-A dan yuqoriligi va uning mikrog‘ovaklarini yuqori darajada faollashuvi isbotlangan;

- CO₂ ning to‘yinish bosimida MHTN tenglamalari asosida hisoblangan adsorbsiya miqdori Mt-PAU-A da PPAU-A dan 1,7 marta, Pp-PAU-A dan 3,8 marta ko‘p ekanligi isbotlangan;

- ilk marotaba Pavlovniya daraxti chiqindilari asosida yangi adsorbentlarini olishning noan’anaviy faollashtirish usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Pavlovniya daraxtining chiqindi po‘stloq qismidan faollashtirishning an’anaviy usulda suv bug‘i yordamida faollashtirilgan uglerodli adsorbent olish texnologiyasi yaratilgan;

Atrof-muhit muhofazasida qo‘llash uchun chiqindilar asosida faollashtirib olingan, yuqori sorbsion xususiyati va sirt yuzasiga ega adsorbentlar ishtirokida tabiiy gazlarni tarkibida mavjud uglerod to‘rt oksidini ruxsat etilgan me’yorgacha sorbsiyalashi aniqlangan;

Atrof-muhit hamda inson salomatligi uchun zaharli va zararli bo‘lgan gazlarni (CO₂ va boshqa) faollashtirishning an’anaviy va noan’anaviy usuli asosida olingan adsorbentlar adsorbsiyasida qo‘llashning usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Faollashtirilgan sorbentlarning kolloid-kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil natijalari asosida «Farg‘ona NQIZ» MChJda

o'tkazilgan sanoat-tajriba sinovi hamda olingan dalolatnoma shuningdek, yuqori tashkilotning qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati Pavlovniya daraxti poyasi va shoxa chiqindilarini an'anaviy va noan'anaviy faollashtirish jarayonlarida solishtirma sirt yuzasi o'zgarishlari hisobidan sorbsion xarakteristikalarini o'rganish, faollashtirilgan adsorbentlarda turli zararli gazlarning adsorbsiyasi o'zgarishlari, adsorbent-adsorbat o'zaro ta'sirlashish mexanizmi asosida sorbentlarda CO₂ adsorbsiyasining korrelyatsion bog'lanish qonuniyatlarini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati daraxtlarning chiqindi xomashyolarini faollashtirishi asosida yuqori g'ovaklikka ega mahalliy xomashyo chiqindilaridan adsorbentlar olish hamda ularni tabiiy gazlarni tarkibidagi CO₂ dan tozalashning imkoniyatlarini baholash bilan izohlanadi. Respublikamizning keng plantatsiyalarida mahalliyashtirib ko'paytirilayotgan Pavlovniya daraxtining shoxa hamda po'stloq chiqindilarini an'anaviy parqazli faollashtirish, shuningdek Pavlovniya shoxa chiqindilarini mikroto'lqinli ta'sirlashuv orqali noan'anaviy usulda faollashtirishdan olingan yuqori uglerodli adsorbentlarning CO₂ gazi adsorbsiyasining to'liq termodinamik xarakteristikalari va adsorbsion xususiyatlari, shuningdek yuqori solishtirma sirt yuzasiga ko'ra import o'rnini bosishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pavlovniya daraxtining buddalangan shoxalari va po'stloq qism chiqindisidan faollashtirib olingan uglerodli, yuqori sorbsion xususiyatli adsorbentlarni olish va ularning asosiy termodinamik xarakteristikalarini mikrokalorimetr qurilmasida adsorbsiyasini o'rganishdan olingan ilmiy natijalar asosida:

Yog'och ko'mir asosida adsorbent olish usuliga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan foydali modelga patenti olingan (FAP № 2480. 18.08.2023). Natijada, yangi turdagi sorbentlarni olishning usuli yordamida sorbsion materiallarni olishning imkonini bergan;

daraxt po'stlog'i va shoxa chiqindilari yordamida olingan Pp-PAU-A va PPAU-A hamda Mt-PAU-A adsorbentlarini faollashtirib olishning texnologiyasi «Farg'ona neft-gaz» MChJning «2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Farg'ona NQIZ» MChJning 2023 yil 13 sentabrdagi 02-03-01/135-son ma'lumotnomasi). Natijada, Pp-PAU-A, PPAU-A hamda Mt-PAU-A adsorbentlarining asosiy termodinamik xarakteristikalari (ΔH , ΔF , ΔS va izotermasi) asosida ularning solishtirma sirt yuzasi va gazlarni yutishi bo'yicha to'liq adsorbsiya mexanizmi to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida neft va gaz korxonalari tarmog'ida qo'llashning imkonini beradi;

an'anaviy va noan'anaviy usullarda faollashtirib olingan yuqori uglerodli Pp-PAU-A va PPAU-A hamda Mt-PAU-A tipidagi adsorbentlar ishtirokida tabiiy gazlarni tarkibidagi zaharli va zararli CO₂ kabi toksik gazlardan tozalashning texnologiyasi «Farg'ona NQIZ» MChJning «2024-2026 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Farg'ona NQIZ» MChJning 2023 yil 13 sentabrdagi 02-03-01/135-son ma'lumotnomasi). Natijada, tabiiy gazlarni tarkibidagi CO₂ kabi zararli gazlarni ruxsat etilgan me'yor darajasigacha tozalashda import o'rnini bosuvchi adsorbent sifatida foydalanilishi tufayli milliy valyutani tejash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining nashr etilganligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, shundan 1 ta foydali model, 1 ta monografiya hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi dissertatsiyalarning asosiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan 2 tasi respublika va 4 tasi xalqaro jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqot ishi mavzusiga aloqador tadqiqotlarning dolzarbligi, zarurati hamda maqsad va vazifalarining asoslanilganligi, shuningdek tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ob'yekti va predmeti keltirilgan bo'lib ilmiy yangiligi hamda amaliy jihatlari keng yoritilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy hamda amaliy ahamiyati bayon qilingan, shuningdek ilmiy tadqiqot ishi bo'yicha nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Atrof muhit muhofazasida qo'llaniladigan faollashtirilgan adsorbentlarning olinishi, qo'llanilishi va ularning zamonaviy holatining tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalaridan chiqayotgan zaharli tutun-gazlarning atrof-muhitga ta'sirining ilmiy tahlillari, atrof muhit muhofazasida muhim bo'lgan yuqori sorbsion xususiyatga ega adsorbentlar olishda xomashyo resurslarini tanlashning ilmiy asoslarining tahlili, atrof muhitga ta'sir etayotgan zararli tutun-gazlar adsorbtsiyasida faollashtirilgan adsorbentlarning roli, sorbsion materiallarning atmosfera havosi tarkibidagi zararli gazlarning adsorbtsiyasida qo'llanilishi bo'yicha adabiyotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Atrof-muhitga chiqayotgan zaharli gazlar sorbsiyasida qo'llaniladigan adsorbtsion materiallarning olinishi va fizik-kimyoviy xususiyatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'yekti bo'lgan Pavlovniya daraxti chiqindi po'stlog'i va yog'ochi asosida faollashtirib adsorbent olishning usullarining tadqiqot natijalari, shuningdek faollashtirib olingan adsorbentlarning kimyoviy va fizik-kimyoviy tadqiqot usullari, jumladan IQ-spektr va rentgenfazaviy tahlili xamda sorbentni faollashtirish jarayonida atrofga chiqariladigan gazlarning xromatografiya natijalari, shu bilan birga mo'ridan chiquvchi gazlarni tarkibidan CO₂ ni adsorbtsiyasida adsorbentlarni qo'llashning imkoniyatlari, tabiiy gazning kimyoviy tarkibi va yonishi jarayonida hosil bo'ladigan uglerod to'rt oksidining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish hamda tutun gazlarning fizik-kimyoviy xossalari bayon etilgan.


Faollashtirilgan adsorbent ishlab chiqarishda xom ashyo birinchi navbatda havo ishtirok etmagan muhitda issiqlik bilan ishlov berish orqali olinadi. Buning natijasida uchuvchi moddalar, namlik va qisman smolalar undan chiqariladi. Adsorbent hosil bo'lishi jarayonida undan chiqayotgan gazlar va smolasimon moddalarning

xromatografiyasi tadqiq etildi. Unga ko'ra smolani 100-200°C haroratda qizdirilganida ajralgan suyuqlikning tahlilida dastlabki vaqtdan boshlab 1.945 minutdan keyin $5 \cdot 10^9$ dan ortiq maydon integrallari aniqlangan bo'lib, bu maydonlarning $3 \cdot 10^7$ qismi 100 % lik ko'rsatgich bilan 265 - 297 m/z oralig'ida aniqlandi. Tahlilning davomiyligi 12 daqiqadan oshib, tahlilning dastlabki daqiqalarida qayd etilgan yuqori intensivlikdagi cho'qqi suv molekulalariga tegishli ekanligi ma'lum bo'li ular gaz holida 14.5 dan 16.5 molgacha suv bug'lari mavjudligini ko'rsatdi, chunki suv bug'lari zaryadlanmaydi. Xomashyoni piroliz usulida faollashtirish 300-400°C haroratga yetganida ajralib chiqayotgan tutunning xromatografik tahlili natijalari 1.884 daqiqadan keyin $3 \cdot 10^7$ dan ortiq maydon integrallari va 100% lik intensivlik bilan 291- 306 m/z oralig'ida suv molekulalari aniqlangan.

Dissertatsiyaning «An'anaviy usulda faollashtirilgan Pp-PAU-A va PPAU-A sorbent materiallarida uglerod IV oksidi adsorbsiyasi tadqiqi» deb nomlangan uchunchi bobida Pavlovniya daraxtidan tanlangan usullarda faollashtirilgan adsorbentlarining turli tabiatdagi adsorbatlarga nisbatan sorbsion xususiyatlari bilan asosiy termodinamik tavsiflari (ΔH , ΔF va ΔS) orasidagi bog'liqliklari adsorbsion-kalorimetrik usulda olingan ma'lumotlari asosida keltirilgan. Pavlovniya daraxtining po'stloq va yog'och chiqindilari asosida an'anaviy (termik-piroliz sharoitida, pargaz-suv bug'ining ishtirokida ma'lum sharoit ostida) va noan'anaviy (mikroto'lqinli nurlanish ta'siri orqali) usullarda faollashtirilgan uglerodli adsorbentda adsorbatning sorbsion mexanizmini nafaqat izoterma va asosiy termodinamik (ΔH , ΔF va ΔS) tavsiflarining adsorbsiya miqdoriga mos ravishda qonuniyatli o'zgarishiga qarab, balki bu faollashtirilgan adsorbentning turli tabiatga ega bo'lgan adsorbatlarning sorbsion kattaliklari qiymatlarini taqqoslash orqali ham uglerodli sorbentning faol markazlarining miqdori, kuchi va tabiatini, shuningdek sorbsion mexanizmini aniqlashning imkoniyati mavjud.


Pavlovniya po'stlog'ini pargaz faollashtirilgan uglerodli adsorbentni qisqartma ko'rinishida Pp-PAU-A kabi belgilab olindi. Pp-PAU-A adsorbentida CO₂ adsorbsiyasining logarifmik koordinatalardagi izoterma va MHTN tenglamasi tavsifi 1-rasmda keltirilgan. Izoterma egriligi dastlab past bosimlarda botiq ko'rinishda bo'lib, bu kuchli o'zaro ta'sir qiluvchi adsorbsion markazlarning mavjudligi haqida ma'lumot beradi. Pp-PAU-A adsorbentining CO₂ ga nisbatan dastlabki faol markazining miqdori 0,1 mmol/g ga teng bo'lishi va dastlabki faol markazining CO₂ molekulalari bilan monomer 1CO₂:C₁ kompleksini hosil qilishidan dalolat beradi.

Egrilik ma'lumotlari asosida keyingi yutilishlarda CO₂ molekulalarining sorbsiyalanishida $\ln(P/P_s) = -7$ (P=51 mm.sm.ust.) qiymati izoterma yuqori tomon egilishi 0,4 mmol/g gacha bo'lgan adsorbsiyada yakunlanadi. Bu adsorbsiya miqdori yuqorida bayon qilingan faollashtirilgan Pp-PAU-A adsorbenti dastlabki faol markazi miqdoridan 4 marta katta ekanligini ifodalaydi. Demak, karbonat anhidrid molekulalari faollashtirilgan ko'mirning dastlabki faol markazi bilan ketma-ket ravishda dimer 2CO₂:C₁, trimer 3CO₂:C₁ va tetramer 4CO₂:C₁ komplekslarini hosil qilishi kuzatiladi.



1-rasm. Pp-PAU-A adsorbentida CO₂ adsorbsiyasining logarifmik koordinatadagi izotermasining MHTN tenglamasi tavsifi. Δ-tajriba, ◆-MHTN tenglamasi orqali.

0,4 mmol/g adsorbsiya miqdoridan soʻng izoterma egriligi tik yuqoriga qarab chiziqli oʻzgaradi. Bu faollashtirilgan Pp-PAU-A adsorbentining bir jinsli qismida adsorbsiyalanish borishini bildiradi. Toʻliq sorbsion mexanizm tavsiflarini izotermaning P/P_s nisbiy bosim, adsorbsiya differensial issiqligi, izoterma qiymatlaridan, yaʼni Gibbs energiyasi va differensial entalpiya asosida hisoblangan entropiya oʻzgarishi qiymatlaridan va issiqlik muvozanat vaqtidan foydalanib aniqlash mumkin.



2-rasm. Pp-PAU-A adsorbentida CO₂ molekullari adsorbsiyasining P/P_s koordinatadagi izotermasi, differensial issiqligi (Q_d), differensial molyar entropiya oʻzgarishi xamda issiqlik muvozanat vaqti.

Nisbiy bosimning $\ln(P/P_s) = -4,83$ logarifmik qiymat koʻrsatkichi ($P = 430$ mm.sm.ust.) gacha izoterma qiymatlari chiziqli oʻzgarib, 0,95 mmol/gga yetgan adsorbsiya miqdorida sorbsion jarayon batamom tugaydi.

Adsorbsiya izotermasi (2-rasm) egriligi dastlabki toʻyinishlarda $P/P_s = 0,115 \cdot 10^{-6}$ nisbiy ($P = 0,62$ mm.sm.ust.) bosimida adsorbsiyaning miqdori 0,009 mmol/g ga teng. Pp-PAU-A adsorbentining aktiv markazlari miqdori 0,1 mmol/g ga karrali ekanligini, shuningdek adsorbat-adsorbent bogʻlanishning ketma-ket ravishda mono-, di-, tri- va tetramer $4CO_2:C_1$ komplekslarini hosil qilish bilan boradi. Izoterma egriligi $P/P_s = 0,008$ nisbiy ($P = 430$ mm.sm.ust.) bosim va 0,95 mmol/g adsorbsiya miqdori qiymatigacha yetkazildi. Bunda izotermaning logarifmik koordinata ($\ln(P/P_s)$) dagi va muvozanat nisbiy bosimning (P/P_s) koordinatadagi grafiklariga asosan ikki xil sorbsion mexanizm kelib chiqadi. Pp-PAU-A adsorbentida toʻliq sorbsion mexanizm tavsiflarini adsorbsiyaning differensial issiqligi, termokinetika va izoterma qiymatlaridan, yaʼni

Gibbs energiyasi orqali hamda differensial entalpiya asosida hisoblangan entropiyaning o'zgarish grafiklaridan aniqlash mumkinligi asoslanilgan. Pp-PAU-A adsorbentida adsorbsiya miqdorining nisbiy bosimga bog'liqlik izotermasi Brunauerning 1 klassifikatsiyasiga mos keladi, ya'ni bunda uglerod IV oksidining adsorbsiyasi adsorbentning faqat mikrog'ovaklarida adsorbsiyalanishini ko'rsatadi.

Karbonat angidrid molekullari Pp-PAU-A adsorbentida monomer $1\text{CO}_2:\text{C}_I$ kompleksini hosil qiladi. Pp-PAU-A adsorbenti adsorbsion hajmining to'yinishi bilan 0,2 mmol/g adsorbsiyada entalpiya 27,7 J/mol gacha kamayib dimer $2\text{CO}_2:\text{C}_I$ kompleksini, keyinchalik esa 0,3 mmol/g adsorbsiyada differensial entalpiya 29 kJ/mol gacha ortib, trimer $3\text{CO}_2:\text{C}_I$ kompleksini, adsorbsiyalanishning keyingi bosqichlarida esa 0,4 mmol/g adsorbsiya miqdorigacha entalpiyaning miqdori 28 kJ/mol gacha kamayib, $4\text{CO}_2:\text{C}_I$ kompleksini hosil qiladi. Mono va trimer, hamda 0,57 mmol/g adsorbsiya miqdorlaridan so'ng differensial issiqlikning qisman (2 kJ/mol dan kam) ortishi, boshlang'ich sohada karbonat angidrid molekullarining qayta taqsimlanishi bilan 0,64 mmol/g adsorbsiya miqdorida 2 kJ/mol ga ortadi. Bu esa uglerod IV oksidi molekullarining o'zaro Van-der-Vaals o'zaro ta'sir kuchi natijasida qo'shimcha, ya'ni induksion effekt borishi bilan issiqlik miqdorining ajralib chiqishi natijasi hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, CO_2 molekullarining qiymatlari Van-der-Vaals o'zaro ta'sir energiyasining nazariy hisoblangan 2 kJ/mol qiymatiga mos keladi.


CO_2 molekullarining Pp-PAU-A adsorbenti adsorbsiyasining differensial molyar entropiyasi o'zgarishi umumiy holda 303 K haroratdagi standart sharoitdagi entropiya o'zgarishidan yuqorida joylashgan, shuningdek o'rtacha entropiya o'zgarishi 19 J/mol·Kga teng bo'lib, bunda karbonat angidrid molekullarining harakatchanligi cheklanmagan. Entropiya o'zgarishi grafigidan har bir adsorbat/adsorbent nisbatdagi molekular kompleks hosil bo'lishida entropiyaning o'zgarishi, Pp-PAU-A adsorbentida dastlabki aktiv markazi miqdori adsorbsiya differensial entalpiya, izoterma, MHTN umumiy tenglamasi asosida qayta hisoblangan adsorbsiya miqdorining muvozanat bosimga bog'liqligi tenglamalari koeffitsientlari qiymatlarining 0,1 mmol/g qiymatiga qonuniyatli ravishda o'zgarishiga mos keladi.

Tetramer $4\text{CO}_2:\text{C}_I$ kompleksidan so'ng, sorbsion hajmning to'yinishi bilan, entropiya 0,525 mmol/g adsorbsiya miqdorigacha 15 J/mol·K dan o'zgarmaydi, 0,65 mmol/g adsorbsiyada chiziqli ravishda 7 J/mol·K gacha kamayadi, ~0,775 mmol/g adsorbsiyagacha o'zgarmaydi va 0,9 mmol/g adsorbsiyada 5 J/mol·K gacha kamayadi, so'ng keskin ravishda 50 J/mol·K gacha ortib ketadi va sorbsion jarayon tugaydi. Ammo 0,9 mmol/g adsorbsiya miqdorigacha entropiyaning pog'onali yoki chiziqli o'zgarishi 0,125 mmol/gga karrali, ya'ni $0,4 \rightarrow 0,525 \rightarrow 0,65 \rightarrow 0,775 \rightarrow 0,9$ mmol/g qonuniyat asosida o'zgaradi. Bu adsorbentning keyingi faol markazi 0,125 mmol/g ga tengligidan dalolat beradi uglerod IV oksidi adsorbentning 2-faol markazi bilan $4\text{CO}_2:\text{C}_{II}$ kompleksini hosil qiladi. Entropiya o'zgarishida ham to'la adsorbsiya miqdori 0,9 mmol/g dan so'ng entropiya keskin ortib ketadi, ya'ni ular orasida bog'liqlik mavjudligidan adsorbentning ikkinchi faol markazi miqdori 0,125 mmol/gga tengligini isbotlaydi.

Muvozanat vaqti faollashtirilgan ko'mirning dastlabki faol markazida adsorbsiya izotermasi, differensial issiqligi va entropiyadagi qonuniyatli ravishda

mono -, di -, tri - va tetramer ($1\text{CO}_2:\text{C}_1\div 4\text{CO}_2:\text{C}_1$) komplekslarining hosil bo'lishidagi o'zgarishlarni to'la tasdiqlaydi. Issiqlik muvozanat vaqti keyingi karbonat anhidrid molekulalarining adsorbsiyasida adsorbentning I - va II - faol markazlariga bog'liq bo'lmagan qismda adsorbsiyalanishini ifodalaydi.

Yuqorida natijasi keltirilgan Pp-PAU-A va keyingi bob tahlilida keltiriladigan Mt-PAU-A qiymat ko'rsatkichlari kabi CO_2 ning nisbiy bosimi yuqoriligi sababli, tajriba $P/P_s=0,0104$ (565 mm.sm.ust.) gacha olib borildi.




3-rasm. PPAU-A da uglerod IV oksidi molekulalari adsorbsiyasining P/P_s koordinatadagi izotermsi va uning asosida hisoblangan MHTN tenglamasi tavsifi.

Adsorbsiya izotermsining boshlang'ich sohasidan PPAU-A adsorbentida uglerod IV oksidi molekulalari Pp-PAU-A adsorbentiga nisbatan mustahkam bog'lanishda ekanligini, Mt-PAU-A ga nisbatan esa sust bog'lanishda ekanligi ko'rinadi. Umumiy holda izoterma egiluvchan ko'rinishga ega, bu mazkur pargaz faollashtirilgan adsorbentida nisbatan kuchli o'zaro ta'sir qiluvchi adsorbsion markazlarning mavjudligini ko'rsatadi. 3 rasm a), b) va v) lardan MHTN asosida hisoblangan qiymatlar tajribada olingan qiymatlarga mos kelishi ko'rinadi va tajribada olingan va MHTN ning umumiy tenglamasi asosida hisoblangan izoterma boshlang'ich sohasi (3,94 mm.sm.ust.) dan karbonat anhidridning 303 K haroratdagi to'yinish bosimigacha bo'lgan intervaldagi, shuningdek 1000 mm.sm.ust. gacha bo'lgan intervaldagi, 3 v-rasmda esa tajribada olingan intervalgacha bo'lgan sohadagi izotermalaridagi moslik ko'rinadi. Faol markazlarda CO_2 molekulalari $P/P_s=0,000464$ nisbiy bosimda monomer $1\text{CO}_2:\text{C}$ va $P/P_s=0,001$ da esa dimer $2\text{CO}_2:\text{C}$ komplekslarini hosil qiladi. Izoterma 0.5 mmol/g adsorbsiya miqdori va muvozanat bosimning nisbiyning $\text{Ln}(P/P_s)=-5,85$ ($P/P_s=0,0028$, $P\sim 150$ mm.sm.ust.) logarifmik qiymatigacha chiziqli o'zgarishi ham tasdiqlaydi, ya'ni adsorbsiyaning 0.5 mmol/g qiymatida faollashtirilgan sorbentning 0.1 mmol/gga teng aktiv markazlarida 5 tadan karbonat anhidrid molekulalari adsorbsiyalanib pentamer $5\text{CO}_2:\text{C}$ kompleksni hosil bo'lishi bilan izotermada kichik egilish kuzatiladi, ya'ni karbonat anhidrid molekulalarining sorbentning asosiy markazlaridagi sorbsiya jarayoni tugaydi. Izoterma Brunauerning 1 tur klassifikatsiyasiga mos keladi, ya'ni uglerod IV oksidi adsorbentning mikroporalarida adsorbsiyalanadi.

3-rasmdagi P/P_s logarifmik koordinatalardagi izoterma 4-rasmdagi sorbsion mexanizmni to'liq tasdiqlaydi. Boshlang'ich sohada bosim 0.1 mmol/g adsorbsiya miqdorigacha nisbatan sekin va chiziqli o'zgaradi. Bu adsorbat-adsorbent o'zaro

bog'lanishining nisbatan o'zaro kuchli bog'langanligini bildiradi. 0.1 mmol/g adsorbsiya miqdorida dastlabki kichik pog'onani bilan $1\text{CO}_2:\text{C}$ monomer kompleks, kichik egilishdan so'ng 0.5 mmol/g adsorbsiyagacha chiziqli o'zgarib $5\text{CO}_2:\text{C}$ pentamergacha bo'lgan komplekslarni hosil qiladi. 4-rasmdagi PPAU-A adsorbentida karbonat anhidrid adsorbsiyasining differensial entalpiyasi pog'onali ko'rinishga ega.

Differensial entalpiyaning $5\text{CO}_2:\text{C}$ pentamer kompleks hosil bo'lishigacha bo'lgan qonuniyatli o'zgarishlari izotermanın nisbiy bosim koordinatalaridagi chiziqli o'zgarishiga mos keladi, ya'ni Pavlovniya daraxti tana qismidan par-gaz faollashtirilgan ko'mir adsorbentining karbonat anhidridga nisbatan adsorbsion faol markazining miqdori 0.1 mmol/g ga teng ekanligini isbotlaydi. 0.1 mmol/g adsorbsiya miqdorida, ya'ni $1\text{CO}_2:\text{C}$ monomer, 0,3 mmol/g da $3\text{CO}_2:\text{C}$ trimer kompleks hosil bo'lishida differensial issiqlikning qisman ortishini 2 xil izoh berish mumkin.



4-rasm. PPAU-A adsorbentida uglerod IV oksidi molekulari adsorbsiyasining P/P_0 koordinatadagi izotermasi, differensial issiqligi (Q_d), CO_2 molekulasining adsorbsiya differensial molyar entropiya o'zgarishi hamda issiqlik muvozanat vaqti.

Mono va trimer ($n\text{CO}_2:\text{C}$) komplekslar hosil bo'lishida dastlab adsorbsiyalangan CO_2 molekularining qayta taqsimlanishidan hamda faollashtirilgan sorbentning aktiv markazida mono va trimer komplekslar hosil bo'lishi CO_2 molekularining Van-der-Vaals o'zaro ta'sir kuchi natijasida qo'shimcha issiqlik miqdorining ajralib chiqishi natijasi bilan tushuntiriladi. Bu CO_2 molekularining Van-der-Vaals o'zaro ta'sir energiyasining nazariy hisoblangan 2 kJ/mol gacha qiymatiga mos keladi. 0,5 mmol adsorbsiya miqdoridan boshlab differensial issiqlikning dastlab qisman ortishi ham adsorbat-adsorbat molekularining o'zaro Van-der-Vaals o'zaro ta'siri natijasida ajralib chiqadigan energiya bilan bog'liq hisoblanadi. 0,7 mmol/g adsorbsiya miqdorigacha Q_d qisman (29 kJ/mol gacha) ortadi, adsorbsiyaning 0,8 mmol/g va 1 mmol/g qiymatida yana 27,6 kJ/mol gacha kamayib sorbsion jarayon tugaydi. Entalpiyaning 27 kJ/mol gacha kamayishdagi adsorbsiya miqdori (0,5 mmol/g) va sorbsion jarayon tugashigacha bo'lgan adsorbsiya miqdori (~27 kJ/mol entalpiyada) bir-biriga teng.

Bunda keyingi adsorbsiyalangan 0,5 mmol/g CO_2 molekulari dastlabki adsorbsiyalangan molekular bilan ikkinchi koordinatsion sferada o'zaro adsorbat/adsorbat ($5\text{CO}_2:5\text{CO}_2$) o'zaro bog'lanishda bo'ladi. Entropiya o'zgarishi grafigidan (4-rasm) har bir adsorbat/adsorbent nisbatdagi molekular kompleks hosil bo'lishida entropiyaning o'zgarishi, PPAU-A aktiv markazi miqdori adsorbsiya

izotermasi va differensial issiqligining 0,1 mmol/g qiymatiga qonuniyatli ravishda o'zgarishiga mos keladi.


PPAU-Aning asosiy aktiv markazida monomer $1\text{CO}_2:\text{C}$ kompleks hosil bo'lgandan so'ng entropiya 0,16 mmol/g adsorbsiyada o'zining eng minimum qiymati 3 J/mol·K gacha kamayadi. 0,2 mmol/g adsorbsiyada dimer $2\text{CO}_2:\text{C}$ kompleks hosil bo'lishida molyar differensial entropiya 6,5 J/mol·K gacha ortadi, 0,3 mmol/g adsorbsiya miqdorida entropiya 7,5 J/mol·K gacha ortib trimer $3\text{CO}_2:\text{C}$ kompleks, 0,4 mmol/g adsorbsiya miqdorida entropiya 5,5 J/mol·K gacha kamayib tetramer $4\text{CO}_2:\text{C}$ kompleks va 0,5 mmol/g adsorbsiyada 8 J/mol·K entropiyada pentamer $5\text{CO}_2:\text{C}$ kompleks hosil qilish bilan asosiy faol markazda sorbsion jarayon tugaydi. Keyingi yutilishlarda esa CO_2 molekulari dastlabki adsorbsiyalangan molekular bilan o'zaro adsorbat/adsorbat ta'sirlashadi va 0,95 mmol/g adsorbsiya miqdorida entropiya 3 J/mol·K gacha kamayib uglerod IV oksidi adsorbent ichidagi harakatchanligi qisman cheklanadi va umumiy holda $\text{C}:5\text{CO}_2:5\text{CO}_2$ kompleksini hosil qilib uchinchi koordinatsion sferadagi adsorbsiya, ya'ni adsorbat/adsorbat bog'lanish tugaydi. So'ng entropiya 3 J/mol·K qiymatidan keskin 47 J/mol·K gacha ortib 1,04 mmol/g adsorbsiya miqdorida PPAU-A adsorbentida karbonat anhidrid sorbsiyalanishi tugaydi. Entropiyaning 1 mmol/g adsorbsiyadan so'ng 47 J/mol·K gacha keskin ortishi uning yuqorida keltirilgan asosiy faol markazlardan tashqari, ya'ni uchinchi darajali faol markazda sorbsiyalanishi bilan bog'liqdir.

